

“KELISHILDI”
Farg‘ona viloyat
hokimi



X.X. Bozarov

2023-yil “ ___ ” mart

“TASDIQLAYMAN”
Yuristlar malakasini oshirish
markazi direktori



Sh.Rabiyev

2023-yil ___ -mart

**“KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH
VA KOMPLAENS NAZORAT” KURSINING**

O‘QUV DASTURI

O‘QUV KURSINING MAZMUNI

Kirish
<p>O‘quv kursi dasturi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-sentabrdagi “Yuridik sohaga oid bilim talab etiladigan mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishning zamonaviy tizimini joriy eti chora-tadbirlari to‘g‘risi”gi 544-son qarorida belgilangan talablar majmuiga mos keladi.</p> <p>O‘quv dasturida tinglovchilarni davlat organlari va tashkilotlari tizimida korrupsiyaga qarshi kurashishga oid nazariy bilimlarini kengaytirish hamda kasbiy ko‘nikmalarini shakllantirish nazarda tutilgan.</p>
O‘quv kursining maqsadi
<p>Davlat organlari va tashkilotlari xodimlariga tizimda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha nazariy bilimlar berish.</p>
O‘quv kursining vazifalari
<p>Davlat organlari va tashkilotlari xodimlarining quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha nazariy bilimlarini oshirish, ko‘nikmalarini rivojlantirish:</p> <ul style="list-style-type: none">korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari;korrupsiyaga qarshi “komplaens-nazorat” tizimining kelib chiqishi, uning elementlari va asosiy yo‘nalishlari;xodimlarning odob-axloq qoidalari va ularga rioya qilmaslik uchun javobgarlik;manfaatlar to‘qnashuvi tushunchasi va uni hal qilish choralari
Kutilayotgan natijalar
<p>Modulni o‘zlashtirish tinglovchilarga korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari; korrupsiyaga qarshi “komplaens-nazorat” tizimining kelib chiqishi, uning elementlari va asosiy yo‘nalishlari; xodimlarning odob-axloq qoidalari va ularga rioya qilmaslik uchun javobgarlik hamda manfaatlar to‘qnashuvi tushunchasi va uni hal qilish choralari o‘rganishga zamin yaratadi.</p>
O‘qitish shakli:
<p>Ishdan ajralgan yoki ishdan ajralmagan shakllarda</p>
Tinglovchilar kontingenti
<p>Farg‘ona viloyati hokimligining xodimlari, shuningdek, yuridik sohaga oid bilim talab etiladigan mutaxassislar</p>

MODULNING MAVZULAR REJASI

T/r	Mavzular nomi	O'quv mashg'uloti	Jami
1	Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari	2	2
2	Korrupsiyaga qarshi "komplaens-nazorat" tizimining kelib chiqishi, uning elementlari va asosiy yo'nalishlari	2	2
3	Xodimlarning odob-axloq qoidalari va ularga rioya qilmaslik uchun javobgarlik	1	1
4	Manfaatlar to'qnashuvi tushunchasi va uni hal qilish choralari	1	1
5	Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlik	1	1
6	Yakuniy sinov (test)	1	1
	JAMI:	8	8

O'QUV MATERIALINING MAZMUNI

DAVLAT ORGANLARI VA TASHKILOTLARI TIZIMIDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH
<p>1-Mavzu: Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari</p> <p>Korrupsiya tushunchasi, turlari, sabablari va oqibatlarini. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarining mazmun-mohiyati. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatini ta'minlashga qaratilgan milliy qonunchilik. Aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishda amalga oshirilayotgan ishlar. Jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish yo'nalishlari. Davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir amalga oshirilgan chora-tadbirlar. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash, ularga chek qo'yish, ularning oqibatlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etishga oid chora-tadbirlar. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta'minlash usullari. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini ta'minlashda tashkilotning vazifalari.</p>
<p>2-Mavzu: Korrupsiyaga qarshi "komplaens-nazorat" tizimining kelib chiqishi, uning elementlari va asosiy yo'nalishlari</p> <p>Korrupsiyaga qarshi "komplaens-nazorat" tizimi tarixi va rivojlanish bosqichlari. Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat (komplaens) tizimining maqsadi va ahamiyati. Korrupsiyaga qarshi kurashishning muhim tamoyillari (prinsiplari). Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat (komplaens) tizimining elementlari. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha muhim ichki hujjatlar mavjudligi. Tashkilotning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha siyosati va uning mazmu-mohiyati. Korrupsiyaviy xavf-xatarni aniqlash va baholash. Korrupsiyaga qarshi kurashish uchun mas'ul. Tashkilotning korrupsiyaga qarshi siyosati to'g'risida xodimlar va uchinchi shaxslarning xabardorligini ta'minlash. Monitoring, nazorat va hisobdorlik. Huquqbuzarlarga nisbatan munosabat bildirish, javobgarlik. Korrupsiyaviy harakatlarga doir xabarlar. Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat (komplaens) tizimining asosiy yo'nalishlari.</p>
<p>3-Mavzu: Xodimlarning odob-axloq qoidalari va ularga rioya qilmaslik uchun javobgarlik</p> <p>Tashkilot xodimlarining odob-axloqi qoidalarining maqsadi va vazifalari. Tashkilot xodimlarining o'z kasbiy faoliyatini amalga oshirishda rioya qilishlari shart bo'lgan prinsiplar. Tashkilot xodimlarining kasbiy madaniyatiga oid odob-axloq qoidalari. Tashkilot xodimlarining xizmat faoliyatiga oid odob-axloq qoidalari. Tashkilot xodimlarining xizmatdan tashqari odob-</p>

axloq qoidalari. Tashkilot xodimlarining jamoatchilik, ommaviy axborot vositalari vakillari bilan munosabatlarga oid odob-axloq qoidalari. Tashkilot xodimlarining xizmat faoliyatidagi tashqi ko‘rinish va kiyinish uslubiga oid odob-axloq qoidalari. Odob-axloq qoidalariga rioya yetmaganlik uchun javobgarlik. Odob-axloq komissiyasining asosiy vazifalari va funksiyalari. Tashkilot xodimlari tomonidan odob-axloq qoidalarining buzilishi bilan bog‘liq masalalarni ko‘rib chiqish tartibi.

4-Mavzu: Manfaatlarni to‘qnashuvi tushunchasi va uni hal qilish choralari

Manfaatlarni to‘qnashuvi tushunchasi, shakllari. Manfaatlarni to‘qnashuvini boshqarishning tamoyillari. Manfaatlarni to‘qnashuvi haqidagi ma‘lumotlarni oshkor qilish va ko‘rib chiqish tartibi. Tashkilot xodimlarining manfaat to‘qnashuvining oldini olish bo‘yicha majburiyatlari va vakolatlari. Tashkilot xodimi va bemor bilan, shuningdek, bemorning qarindoshlari bilan munosabatlarga quyiladigan talablar. Tashkilotda manfaatlar to‘qnashuvini hal qilish choralari. “Manfaatlar to‘qnashuvi holatlarining hisobga olish reestri” va uni yuritish tartibi.

Manbalar:

O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi O‘RQ-419-son “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni.

O‘zbekiston Respublikasining 1991 yil 19 noyabrdagi 425-XII-son “Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to‘g‘risida”gi Qonuni.

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 10-maydagi O‘RQ-537-son “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi Qonuni (2021-yil 22-yanvardagi O‘RQ-669-son Qonunidagi o‘zgartish va qo‘shimchalar bilan).

O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 20-apreldagi O‘RQ-682-son “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonuni.

O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 8-avgustdagi O‘RQ-788-son “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi Qonuni.

O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 8-yanvardagi O‘RQ-457-son “Ma‘muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonuni.

O‘zbekiston Respublikasining 2022 yil 8 avgustdagi O‘RQ-788-son “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi Qonuni.

O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi.

O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 9 yanvardagi PF-5618-sonli “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydagi PF-5729-son “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 3 oktyabrdagi PF-5843-son “O‘zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi PF-6013-son “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi PF-6257-son “Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo‘lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi PQ-5177-son “Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-yanvardagi PF-11-son “Odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish va sudlar faoliyati samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi PQ-81-son “Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-apreldagi PQ-5263-son “Normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarini korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tkazishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PQ-240-son “Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 6-martdagi 103-son “Tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish taqiqlangan mansabdor shaxslarning ro‘yxati to‘g‘risida”gi qarori.

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda 829-son “Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslarni rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori.

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 26-martdagi 140-son “2022-yilda normativ-huquqiy hujjatlarni korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14 oktyabrdagi 595-son “Davlat fuqarolik xizmatchilarini tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etilishini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori.

Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktorining 2021-yil 6-sentyabrdagi 27-son bo‘yruq‘iga ilovaga muvofiq tasdiqlangan “Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyati to‘g‘risidagi namunaviy nizom”.

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholashning huquqiy asoslari –T.: O‘zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, 2022. – 26 b.

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirining 2021 yil 24 fevraldagi 2-mh-son buyruq‘i bilan tasdiqlangan “Normativ-huquqiy hujjatlar va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasini o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi nizom.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining korrupsiyaga qarshi kurash Konvensiyasi, Nyu-York, 2003-yil 31-oktabr.

O‘zbekiston Respublikasining 2008 yil 7 iyuldagi O‘RQ-158-son “Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga (Nyu-York, 2003-yil 31-oktyabr) O‘zbekiston Respublikasining qo‘shilishi to‘g‘risida”gi Qonuni.

Международный стандарт ISO 37001:2016 Системы менеджмента противодействия коррупции – Требования и руководство по применению.

“ISO 37301:2021 Compliance management systems – Guidelines”.

5-Mavzu: Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlik

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlik tushunchasi va turlari. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar uchun intizomiy javobgarlik asoslari. Korrupsiyaga oid ma‘muriy huquqbuzarlik turlari va javobgarlik shartlari. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar uchun jinoiy javobgarlik asoslari va turlari. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar natijasida yetkazilgan zararni qoplash. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to‘g‘risida ahborot berayotgan shaxslarni himoya qilish. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar natijasida qabul qilingan qarorlarni bekor qilish yoki o‘zgartirish tartibi.

Izoh: 1. “Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplaens nazorat” bo‘yicha malaka oshirish kurslari O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi Yuristlar malakasini oshirish markazida an‘anaviy yoki masofaviy (onlayn) shaklda tashkil etiladi.

2. Buyurtmachi tashkilot malaka oshirishi mo‘ljallanayotgan rahbar va mas‘ul xodimlarining ro‘yxatni shakllantirib, Yuristlar malakasini oshirish markaziga taqdim qiladi.

3. Malaka oshirish kurslari shartnoma asosida pullik amalga oshiriladi.

1 nafar tinglovchi uchun o'quv kursining (8 soatlik) o'qish xarajati – 168 000 (bir yuz oltmish sakkiz ming) so'mni tashkil etadi.

4. Buyurtmachi tashkilot o'quv kursini tashkil qilish bo'yicha mas'ul xodimni Yuristlar malakasini oshirish markazi bilan hamkorlik qilishini tashkil qiladi.

5. Adliya vazirligi qoshidagi Yuristlar malakasini oshirish markazi o'quv kursining mavzulari bo'yicha tegishli o'quv kontentlarini (ma'ruza matni, taqdimot-slayd va h.k.) tayyorlanishini va tinglovchilarga taqdim etilishini ta'minlaydi.

6. Malaka oshirish kurslarini muvaffaqiyatli tamomlagan tinglovchilarga belgilangan namunadagi sertifikat beriladi.

**Viloyat hokimligining korrupsiyaga
qarshi ichki nazorat bo'limi boshlig'i**



F.Nugmanov